

The role of ethnotoponyms in the scientific heritage of Tora Nafasov

Sarvinoz CHARIEVA¹

Karshi State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form
10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online
15 July 2024

Keywords:

ethnonym,
ethnonym,
ethnos,
nation,
clan,
nation,
tribe,
folk names,
ethnotoponyms,
ethnooikonyms,
ethnohydronym,
ethnooronyms,
ethnonymization,
ethnogenesis.

ABSTRACT

This article presents opinions on the specific role of ethnonyms in the formation of toponyms. In this regard, attention was paid to the research conducted by scientists and the specific characteristics of ethnotoponyms included in the scientific heritage of Professor Tora Nafasov were analyzed. Scientist “Annotated dictionary of toponyms of Uzbekistan”, “Name of the village of Kashkadarya”, “Why is your village called that?” books and articles on ethnotoponyms were mentioned.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp304-308>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

To'ra Nafasov ilmiy merosida etnotoponimlarning o'rni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

etnonim,
etnonimiya,
etnos,
xalq,
urug',
qavm,
qabila,
xalq nomlari,
etnotoponimlar,
etnooykonimlar,

Ushbu maqolada etnonimlarning toponimlar hosil qilishdagi o'ziga xos o'rni xususida fikr-mulohazalar keltirilgan. Bu borada olimlar olib borilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratilib, professor To'ra Nafasovning ilmiy merosi tarkibidan joy olgan etnotoponimlarning o'ziga xos xususiyatlariga tahlilga tortilgan. Olimning “O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati”, “Qashqadaryo qishloqnomasi”, “Qishlog'ingiz nega shunday atalgan?” nomli kitoblari hamda etnotoponimlarga bag'ishlangan maqolalariga murojaat qilindi.

¹ Doctoral student, Karshi State University Kashkadarya, Uzbekistan. E-mail: choriyevasarvinoz69@gmail.com

etnogidronim,
etnooronimlar,
etnonimlashuv,
etnogenez.

Роль этнотопонимов в научном наследии Тора Нафасова

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

этноним,
этнонимия,
этнос,
нация,
род,
нация,
племя,
народные имена,
этнотопонимы,
этноойконимы,
этногидроним,
этноооронимы,
этнонимизация,
этногенез.


В данной статье представлены мнения об специфической роли этнонимов в образовании топонимов. В связи с этим было уделено внимание исследованиям, проведенным учеными, и проанализированы специфические характеристики этнотопонимов, вошедших в научное наследие профессора Тора Нафасова. Ученого «Аннотированный словарь топонимов Узбекистана», «Название села Кашкадарья», «Почему ваше село так называется?» упоминались книги и статьи по этнотопонимам.

Tilshunoslikda, xususan, onomastikada etnonimlarni o'rganish ham dolzarb masalalardan biridir. **Etnonim** (etno... va oputa – ism, nom) – urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqalar xil etnik uyushmalar nomi. **Etnonimika** esa tilshunoslikning urug', qabila, xalqlarning nomlarini o'rganuvchi bo'limi. Biror tildagi etnonimlar majmui **etnonimiya** deb yuritiladi. Urug', qabila, xalq nomi o'zi tomonidan tanlangan yoki o'zgalar (ko'pincha qo'shni etnoslar) tomonidan berilgan bo'lishi mumkin. **Etnonimlashuv** – so'zning etnonimga aylanishi. Etnonim etnosning o'zi tomonidan tanlangan bo'lsa – **avtoetnonim**: o'zgalar tomonidan nomlangan bo'lsa – **allogen (ekzogen) etnonim** deb yuritiladi.

Urug' – bir ajdoddan tarqalib, umumiy bir nom bilan ataluvchi qon-qarindoshlik jamoasi. Urug' kishilarning eng qadimgi birligi bo'lib, qarindosh, avlod, bir necha ota-onadan tarqalgan avlod, kishilik jamiyatining ibtidoiy gala davridan keyingi bosqichi quyi paleolitdan yuqori paleolitga o'tish davriga to'g'ri keladi. Urug'chilik qon-qarindoshchilikka asoslangan bo'lib, har bir urug' odamlari bir-birlari bilan xo'jalik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'ladi. Bir ota-bobodan, bir ajdoddan kelib chiqqan kishilar – avlod, qarindosh, ajdod, bir ota-bobodan tarqalgan kishilar – urug', ajdod. Kishilik jamiyatining ibtidoiy gala davridan keyingi bosqichidagi ona urug'i – ona tomonidan qon-qarindoshchilik rishtalari bilan bog'langan qondosh qarindosh-urug'lar ittifoqi, ota urug'i – ota tomonidan qon-qarindoshchilik rishtalari bilan bog'langan qon-qarindosh-urug'lar ittifoqi.

Urug'lar qabilalarga bo'lingan. Qashqadaryo qishloqlari orasida etnonimlar (urug', qabila, qavm, xalq nomlari) asosida yuzaga kelgan toponimlar ham ko'p uchraydi. Bunday toponimlar etnotoponimlar deyiladi. O'zbeklarning 92 urug'i nomi ham etnonimlar sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Ular toponim, oykonim, oronim, gidronim nomlariga ko'chish jarayoni ro'y bergan. Turkiy xalqlar tarkibiga **barlos, qiyot, qushchi, qung'iro, uyshun, nayman, chimboy, qarluq, kenagas, do'rmon, mang'it, nukuz, uyg'ur, xitoy,**

toymas, qipchoq, tuman, ming, urug'lar, qipchoqlar, mang'itlar, yuzlar, qirqlar, qo'ng'irotlar, naymanlar, quramalar, qanglilar, olchinlar, saroylar, kenagaslar, do'rmonlar, qatag'onlar va shu kabi turli qavmlar kirgani bizga ma'lum. Aholi istiqomat qiladigan yashash maskanlariga ham shu urug'-qavmlar nomi borilgan. Natijada, toponim sifatida tarixda qolgan.



Etnotoponimlarni o'rganish va tadqiq etish muhim tarixiy manbaga ega bo'lishni ham ta'minlaydi hamda xalqimiz tarixi va etnogenezinini o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Bu sohada turkiy tilshunoslik va yurtimizda N. Xanikov, A. Xoroshxin, V. Radlov, N. Aristov, L. Budagov, D. Logofet, N. Muravyov, H. Vamberi, M. Galkin, K. Badis, V. Bartold, L. Tolstova, S. Tolstov, A. Yakubovskiy, L. Oshanin, Yu. Sokolov, Ya. G'ulomov, D. Karmisheva, S. Abramzon, S. Klyashtorniy, L. Gumilov, A. Volitova, V. Moshkova, K. Kubakov, Yu. Zuyev, K. Zadixina, D. Yermeyev, G. Karpov, S. Agadjanov, D. Aytmuradov, T. Jdanko, A. Brenstam, B. Ahmedov, A. Muhammadjonov, K. Shoniyozov, Z. Do'simov, X. Doniyorov, A. Ishayev, A. Otajonova, M. Vahobov, Ya. G'ulomov, M. Yo'ldoshev, I. Jabborov, M. Abduraxmonov, K. Marqayev va T. Nafasov kabi olimlar izlanish olib borganlar. Ushbu maqolada To'ra Nafasovning etnonim va etnotoponimlarga oid izlanishlari xususida fikr yuritamiz.

Toponimist T. Nafasov tadqiqotlari davomida etnotoponimlarga alohida mehr bilan yondoshgan va ularni batafsil izohlashga harakat qilgan. To'plagan toponimlar orasida urug', qabila, qavm, xalq nomlari – etnonimlar asosida vujudga kelgan toponimlar

alohida o'rinni egallaydi. Olimning birgina "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" kitobida 725 ta toponim etnonimlardan tarkib topganligini izohlaydi. T. Nafasov har bir toponim tarkibini izohlab, ular tarkibida etnonimlar mavjudligini asosli ravishda isbotlagan. Aholi yashash maskanlarining ko'pchiligi etnonimlar nomlari bilan atalib ketganini ta'kidlagan.

T.Nafasov tadqiqotlarida 1500 ta etnotoponimni o'rgangani ma'lum. "Qashqadaryo qishloqnimasi", "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" va "Qishlog'ingiz nega shunday atalgan?" nomli kitoblarida ularni izohlaganini ko'rish mumkin."Qishlog'ingiz nega shunday atalgan?" nomli kitobida esa **Baliqchi, Uychi, Kenagas, Qahramon, Bag'ish, Dukchi, Jilisuv, Jiliko'l, Nurota, Qiz komponentli toponimlar, Qarshi, Boysun, Beshqozoq, Obod, Olchin, Terak, Chaqar, Oq va qora komponentli joy nomlari, Mo'yon, Bo'ynoq, Tarag'ay. Sarkash, Langar, -metan, -maton komponentli joy nomlari, Norin, G'ishmon, Sayram, Xisor, Ayoqchi, G'o'zabozori, Navkat, Kitob, Xaros, Tezguzar, Sardoba** kabi toponimlarning tarkibida etnonimlar yotganligini izohlar, tarixiy ma'lumotlar, afsonalar bilan izohlagan. T.Nafasovning "Etnotoponimlar" nomli maqolasida ham yuqorida sanab o'tilgan toponim (oykonim)larni batafsil izohlagani bilan ham qimmatli ahamiyatga ega.

Bundan tashqari T. Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" kitobida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati hududlarida uchraydigan quyidagi etnotoponimlar nomlarini ham uchratish mumkin: Avoqli (8), Avg'ona Kerayit (9), Avg'oni (10), Ayronchi (11), Alako'ylak, Alato'n, Alaqarg'a, Aladayqishloq (12), Allot. Almati (13), Arlot (15), Arslonboyi (16), Arg'un, (17), Achchi (19), Baydoqchi, Baymoqli (21), Bakka , Baliqchi (22), Balxi (24), Balqan qaychili (25), Barlos, Barlosguzar, Barlosto'p, Barlosqishloq (26), Barmoq, Bamoqqo'nish (27), Batosh, Batoshariq, Batoshko'cha, Batoshq, Batoshto'rg'ay, Baxmal, Baxshivoyi, Baqirchi, (28), Bag'ish, Bag'ishtepa (29), Beglamish,

Ushbu toponimlar etimologiyasiga e'tibor qaratsak, umumturkiy va o'zbek xalqiga tegishli va umumturkiy bo'lmagan etnonimlar asosida yuzaga kelgan etnotoponimlarga ajratish mumkin. Masalan, Qoraqalpoq (q.), Qipchoq (shahar nomi), Sariq (shahar nomi), Boysun (tuman nomi), Koson (tuman nomi), Qirg'iz (q.), Nayman (q.), Chiroqchi (q.), Ayoqchi (q.), Beshqozoq (q.), Boyqozoq (q.), Avoqli (q.), Qoraxitoy (q.) va boshqa toponimlarni umumturkiy etnotoponimlar deyish mumkin.

Bundan tashqari etnotoponimlar tarkibidagi qo'shimchalarni T. Nafasov formant etnotoponim yasovchilar deyish mumkin. Ularning ko'p qismi hozirda joy nomi hosil qilmaydi. Shuning uchun tarixiy formantlar deyiladi. Bugungi kunda ham faol qo'llanayotgan shakllar zamonaviy formantlar hisoblanadi.

Tarixiy formantlar	Zamonaviy formantlar
-di// -ti, -jin, -r, -s// -z, -t// -d, -boy, -chi// -ji, -chin// -tin, -ch// -j, -q// -oq, -qu// -g'u -man// -mon, -n, -g'a // -g'i, -yon// -on	-li, -chi, -lik// -lik, -ma, -v(-uv) -lar

Nomshunos olim K. Marqayev to'g'ri ta'kidlagandek, **"etnonimlar o'zbek tili leksikasining vaqt o'tishi bilan unutilishga yuz tutayotgan qatlamlaridan biridir. Chunki qabila, urug' va uning shaxobchalari nomini, shajaralarini biladigan keksa avlod vakillari o'tib bormoqda va ular bilan xalqimiz tarixining qimmatli guvohi bo'lgan etnonimlar ham, ular haqidagui ma'lumotlar ham unutilishga yuz**

tutmoqda. Shu sababli etnonimlarni fan uchun to'plab qolish va ularni ilmiy-lisoniy tadqiq qilish dolzarb vazifalardan biridir". Bu borada professor T.Nafasovning tadqiqotlari tahsinga sazovordir. Olimning bu boradagi izlanishlari tilshunoslik, onomastika, geografiya va tarix fanlari uchun ham birdek qimmatli manba bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bo'riyev O., Rahmonov F. Etnologiya atamalarining qomusiy lug'ati. – T., 2021. – B. 250-252
2. Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний таҳлили. Номзодлик диссертацияси. – Тошкент: 2006. Б.320.
3. Мирзаев Н. Этнографическая лексика узбекского языка (на материалы узбекских говоров Кашкадарьинской области). АҚД. – Ташкент: Наука, 1971. – 32 с.
4. Мирзаев Н. Ўзбек этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. Б. 120.
5. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – Б.288.
6. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистонининг жанубий районлари). – Т.: Ўқитувчи, 1988. Б.220.
7. Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? – Т.: Фан, 1989. Б.132.
8. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. – Қарши: Насаф, 1993. Б.245.
9. Нафасов Т. Ўзбек уруғ ва қабилаларининг номланишида тамғаларнинг роли // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006. – Т.: -№2.
10. Qorayev S. Etnonimika. -Toshkent. 1979.
11. Qorayev.S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? –Toshkent. 1970.